

O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI
MIR ARAB OLIY MADRASASI

BUXORONING ISLOM IMLARI
RIVOJIDAGI O'RNI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



Buxoro - 2023

“Buxoroning islom ilmlari rivojidagi o’rni”// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Ilmiy to’plam [Duna poligraf]. Mas’ul muharrir tar.f.n. Sh.Yu.Ziyodov] Buxoro: 2023.

Ushbu to’plamda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasining 2023 yil 3 martdagи 02/1-817 – son “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 17 fevral kuni Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlari bo’yicha berilgan topshiriqlar” bayonining 57-bandи ijrosini ta’minalash maqsadida 2023 yilning 28 sentabr kuni Mir Arab oliy madrasasida o’tkazilgan “Buxoroning islom ilmlari rivojidagi o’rni” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari e’lon qilinmoqda.

Anjuman Mir Arab oliy madrasasi va hamkor tashkilotlar – O’zbekiston Respublikasi Din ishlari bo’yicha qo’mitasi, O’zbekiston musulmonlari idorasi, Buxoro viloyat hokimligi, O’zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyat vakilligi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Mas’ul muharrir:

Shovosil Ziyodov – Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari nomzodi

Bobir Namozov – BuxDU «Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa» kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

Azizxo’ja Inoyatov – Jo’ybori Kalon ayol-qizlar o’rta-maxsus islom bilim yurti mudiri, islomshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori(PHD)

Tolib Safarov – TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti «Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat» kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Tahrir hay’ati:

Davronbek Maxsudov – O’zbekiston Respublikasi Din ishlari bo’yicha qo’mitasi raisining birinchi o’rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), professor

Jobir Elov – O’zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyati vakili, Mir Arab oliy madrasasi rektori

Uchqun Avliyoqulov – Mir Arab oliy madrasasi «O’quv va tarbiyaviy ishlar» bo’yicha prorektori

Mir Arab oliy madrasasining 2023 yil 5 oktyabr kuni bo’lib o’tgan 3-sonli Kengashi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI

<i>Elov J.R.</i>	5	
NAQSHBANDIY TARIQATINING DAVOMCHISI – NAZARIYOTCHI		
SHAYXLARDAN BIRI XOJA MUHAMMAD PORSO		
KUTUBXONASIGA OID YANGI MA'LUMOTLAR. <i>Ziyodov Sh.</i>		7
إسهامات بخارى في تخرج علماء الإسلام أحمد سعد الدمنهوري	133	
ثقافة التسامح في الإسلام ومواجهة العنف الإلكتروني والكرابية	155	
كلمة عن سيدنا الإمام البخاري رحمه الله ورضي عنه	177	
O'RTA ASRLAR BUXORO MADRASALARIDAGI TA'LIM		
JARAYONI, O'QUV DASTURLARI VA IJTIMOIY		
HARAKATCHANLIK. <i>Avliyoqulov U.M.</i>		19
IMOM ABU HAFS NASAFIYNING HADIS ILMI RIVOJIGA		
QO'SHGAN HISSASI VA SOHAGA DOIR YOZGAN ASARLARI		
TASNIFI. <i>Alloqulov A.</i>		211
YA'QUB CHARXIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROsi.		
<i>Zoyirov E.X.</i>	244	
XOJA AHROR VALIY MUROSAGA OID G'OYALARINING		
SHAKLLANISHIDA ABUSAID ABULXAYR, IBN ARABIY VA		
JALOLIDDIN RUMIY QARASHLARINING TA'SIRI.		
<i>Raxmatova X.X.</i>	29	
JADIDLARNING MA'RIFATPARVARLIK VA G'OYAVIY		
QARASHLARIGA BIR NAZAR. <i>Safarov T.T.</i>		355
MAXDUMZODA ULUG'BEK MIRZONING BUXORODAGI		
FAOLIYATI MANBALAR TAHLILI. <i>Kenjayev S.N.</i>		39
ILM NARSALARNI INSON AQLI YoRDAMI BILAN O'RGANISHLIKDIR.		
<i>Bozorova R.Sh.</i>	433	
BUXORONING ROSSIYA KNYAZLIKLARI BILAN SAVDO		
ALOQALARIDA «OLACHABOFON» VA «ZENDEN» MATOSI		
SAVDOSI (TEMURIYLAR SULOLASI DAVRIDA).		
<i>Kenjayev S.N.</i>	477	
TARIQATCHILIKNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI VA		
ULARNING IJTIMOIY-DINIY VAZIYATGA TA'SIRI.		
<i>Kuziev N.A.</i>	533	
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEK MILLIY		
ZIYOLILARINING ALIFBO ISLOHOTLARIGA MUNOSABATI.		
<i>Ahmadov X.S.</i>	601	
BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA ABU HAFS KABIR MASHIXASI.		
<i>Saidov I.K.</i>	688	
HANAFIY MAZHABINING HADIS ILMIDAGI		
USTUNLIGI. <i>Temirov I.Q.</i>	711	
الكلبادني	755	
«NAJH UL-FARODIS» ASARI XIV ASRNING ISLOM ILMLARI		

5. Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С. 215., 226.
6. Kenjayev S.N.Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi XIV asrning 70 yillari-XV asr boshlari.tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. –Buxoro: 2023,144 b.
7. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy(Min) imperiyasi o'rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // —O'tmishga nazar.—Toshkent, 2021.- Б.67-74.
8. Mujmali Fasixiy: Fasih to'plami / Fasih Axmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy. Tarjima, Kirish, izohlar D. Yu. Yusupovaniki. – Т.: O'zFA J «Fan» nashryoti davlat korxonasi, 2018. – 224 b. 223 b. Abdurazzok Samarkandiyda xitoy yelchilarini keltirilgan maktubning surati xam keltirilgan.Matlai Sadayn.,1-k/, 174-175-b.
9. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati (tarixiy ocherk). – Т.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1994. – Б. 149
10. Рашидаддин. Сборник летописей Том I. Книга вторая/перевод с персидского О.И. Смирновой. Премечания Б.И. Понкратова и О.И. Смирновой. Редакция проф А.А. Семёнова. – М-Л.: Издательство академии наук СССР, 1952. – С. 187-188.

TARIQATCHILIKNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI VA ULARNING IJTIMOIY-DINIY VAZIYATGA TA'SIRI

*Kuziev N.A. – BuxDU «Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa» kafedrasи
o'qituvchisi PhD*

Istiqlolning dastlabki kunlaridan oq beba ho ma'naviy-madaniy merosimizni xolisona o'r ganish va tiklashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, ma'naviy merosning tub mohiyatini aks ettiruvchi diniy – milliy qadriyatlarni qo'lyozma manbalar asosida o'r ganish, ularni davr talabidan kelib chiqqan holda baholash, yangicha ilmiy tahlil qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'birlari bilan aytganda, «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligidiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an`analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»[1].

Qimmatli asarlari bilan nafaqat islom olami, balki butun dunyo madaniyatida o`chmas iz qoldirgan Xoja Ahmad Yassaviy (1105-1166/67), `Abduxoliq Gijduvoniy (1103-1179), Najmuddin Kubro (1145-1221), Bahauddin Naqshband (1318-1389), Xoja Muhammad Porso (1345-1420), Hakim Termiziy (820-932), Pahlavon Mahmud (XIV asr), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490), Mir Alisher Navoiy (1441-1501), Maxdum-i Azam Kosoniy-Dahbidiy (vaf. 1542), Boborahim Mashrab (1640-1711), Dukchi Eshon (vaf. 1898 y.) kabi tasavvuf ilmini nazariy va amaliy jihatdan boyitgan buyuk mutafakkirlarning fikrlari, ularning jamiyat hayotida faol qatnashgan etuk tarixiy shaxslar sifatidagi diniy, ma`naviy-ma`rifiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining asl mohiyati va ahamiyatini yoritib berish, albatta, hozirgi davr uchun ham nihoyatda muhimdir.

Zero, tasavvuf ta`limoti vujudga kelgan davrda xalqni yagona maqsad atrofida birlashtirgan, jamiyatning turli tabaqalari o`rtasida do`stlik, birodarlik rishtalarini ildiz otishiga zamin yaratgan. Uning o`ziga xos san`ati, musiqasi, me`morchiligi, va ayniqsa, halollik, mehnatsevarlik,adolat va rostgo`ylik kabi umuminsoniy qadriyatlarini o`zida mujassam etgan edi. Afsuski, keyingi yillarda ayrim shaxslar tariqatni mansab, mol-dunyo orttirish, muridbozlikka aylantirib oldilar. Biz ushbu risolamizda O`zbekistonda faoliyat olib borayotgan va o`zlarini tariqat etakchisi deb tanitayotgan shaxslar, ularning e`tiqodi, ilgari surayotgan g`oyalari va amaliy faoliyatları haqida so`z yuritishga azm qildik. Maqsadimiz kinnidir nimadadir ayblab, yuzini shuvut qilish emas. Biroq muborak dinimizning asl-mazmun mohiyatini buzib, uning hayotbaxsh ta`limotlarini noto`g`ri talqin qiluvchilarni ko`rib indamay qarab turish ham insofdan emas.

O`zbekistonda faoliyat olib borayotgan tariqatchilarning ijtimoiy-diniy vaziyatga ta`siri

Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarni qayta tiklashga e`tibor qaratilishi masjidlar, madrasalar va boshqa diniy tashkilotlar bilan bir qatorda tariqat vakillarining ham faoliyatiga keskin turki bo`ldi. Natijada hozirgi paytda ham Markaziy Osiyoda, xususan, O`zbekistonning turli hududlarida tariqatchilar faoliyati jadallahdi. Ulardan eng ko`zga ko`ringani Naqshbandiya-Mujaddidiya-Husayniya tariqati rahbari bo`lgan Ibrohim eshon hisoblanadi. Ibrohim Mamatqulov, 1937 yili Farg`ona viloyatining Buvayda tumani Oqqo`rg`on qishlog`ida tavallud topgan. 2009 yili vafot etgan.

Uning vafotidan keyin bu tariqat rahbari sifatida Qozog`istonning Chimkent viloyati Sayram qishlog`ida istiqomat qiluvchi Nasriddin eshon saylangan.

Ibrohim eshon tarafдорлари viloyatning Buvayda, Yozyovon, Marg`ilon, Oltiariq tumanlarida ko`pchilikni tashkil etadi. Ibrohim eshon o`z tariqati shajarasida 32-pir hisoblangan.

Ibrohim Mamatqulov hududda boshqa tariqatchilarga nisbatan tarafdarlarining ko'pligi, muridlarini bir joyga to'play olishi, ta'sir doirasining kattaligi bilan farqlanadi. O'zining bergen ma'lumotiga ko'ra, uning tarafdarlari soni 20 mingdan ortiq edi.

Ibrohim eshonning uyi uning tarafdarlari uchun asosiy markaz hisoblanadi. Eshonning xizmatida doimiy tarzda 20-30 nafar murid turadi. Turli viloyatlarda Ibrohim Eshonning o'rribbosarlari bor, ular o'z hududlarida tariqatchilarga rahbarlik qiladilar, yangi a'zolarni qabul qiladilar.

Haftaning juma kunidan tashqari qolgan 6 kun mobaynida besh namoz oldidan muridlarga dasturxon yoziladi. Har kuni soat kunduzgi 12:30 da 250-300 kishiga mo'ljallab I.Mamatqulov xonadonida osh tortiladi va peshin namozidan keyin 15-20 ga yaqin kishi unga bay'at qiladi. So'ng alohida uyda ayollar bay'ati qabul qilinadi.

Ibrohim Mamatqulov tariqat rahbarligini qo'liga olgach, muridlari uchun qator yangiliklar joriy qildi. Ayni paytda, u rahnamolik qilayotgan oqim ilk tasavvuf asoschilari ta'llimotidan ancha yiroqlashgan. Ularning hatti-harakatlarida yurtimizda qariyb o'n to'rt asrdan buyon amal qilib kelayotgan hanafiy mazhabi ahkomlari va ahli sunna e'tiqodiga zid g'oyalarni targ'ib qilish xolatlari kuzatilmokda. Ayni paytda rasmiy imomlar Ibrohim eshon faoliyatidagi shariatning buzilishiga bog'liq ayrim jihatlarga e'tiroz bildirmoqdalar. Misol tariqasida quyidagi masalalarni keltirish mumkin:

- kechasi tahajjud namozini o'qish farz (yoki vojib);
- shukri vuzu` namozini qaysi vaqtda bo`lsa ham o'qib olish zarur;
- pirga qo'l berganning oldingi gunohlari kechiriladi, qazo bo'lgan (qoldirilgan) namozni o'qimasa ham bo'laveradi;
- murididan boshqa kishining to'y-marakalariga bormaslik;
- rasmiy imomlarning amru ma'ruflarini mensimaslik.

Bundan tashqari ayrim muridlar tomonidan ham mutaassibona hatti-harakatlar namoyon bo'layotgani ma'lum. Jumladan:

- Ibrohim eshonning tahoratidan qolgan suvni tabarruk deb iste'mol qilish;
- pirning uyi tomoniga oyoq uzatish qibлага oyoq uzatishdek gunoh bo'ladi
- doimiy katta salsa, uzun oq ko'ylak va maxsi-kovushda guruh-guruh bo'lib yurish.

Ma'lumki, shariat ahkomlarini joriy qilish Alloh yoki U izn bergen payg'ambarlarga xos narsa. Boshqa hech kim, biron-bir sababga ko'ra bu ishni amalga oshirishi, bandalar ustiga shar'iy amrni joriy qilishi mumkin emas. Hattoki Muhammad (s.a.v) ummatlariga doim engillik, osonlik, ixchamlikni istab kelganlar. Bir hadisda aytadilarki: «Agar ummatlarimga qiyin bo'lib qolishidan qo'rqmaganimda edi, ularga har namozdan avval misvok qilishni buyurar edim».

Misvok butasimon «irok» daraxtning novdasidan qirqib, po`stlog`ini shilib tashlab u bilan tish tozalaydigan, o`zidan tish uchun foydali moddalar va xushbo`ylik chiqaradigan narsadir. Odamlar ovqatdan avval va keyin, namozdan avval uni olib og`zilarida bir necha bor uyoq-buyoqqa aylantiradilar va tishlarini tozalaydilar. Odatda bu ishni qilish odamga qiyinchilik tug`dirmaydi va atigi bir necha soniya yoki bir-ikki minut kifoya qiladi. Modomiki, Rasululloh (s.a.v.) shu arzimagan ish musulmon ummatiga mashaqqat bo`lishidan qo`rqib buyurmagan bo`lsalar, kechasi, tunning yarmida, uyquning eng shirin payti kelganda turib ibodat qilishni boshqalarga farz yoki vojib qilishga kimning haddi sig`adi?

Ikkinchidan, agar bandaning xohishi va boshqa holatlariga qarab shar`iy hukmlar o`zgartirilaversa shariatning ulug`ligi qaerda qoladi?!

Keltirilgan dalillardan kelib chiqadiki, avvalo tariqat yo`liga kirgan kishi qo`lidan kelmaydigan ishni bo`yniga olmasligi kerak. Ikkinchidan, Rasululloh s.a.v. qaytargan va ulamolar makruh va hatto harom deb hukm chiqargan amalda qanday taqvo, qanday savob bo`lishi mumkin?! Shunday ekan Alloh va uning Rasuli oson qilib bergen dinimizni qiyinlashtirish va bu orqali savob qilaman deb, ma`siyatga botishda hech qanday manfaat ko`rinmaydi.

E`tirozga sabab bo`layotgan masalalarning yana biri **tariqatga kirgan kishiga ilmning shart emasligi** va hatto ilmni tark qilish afzalligi. Tariqatchilar bunga ushbularni dalil qilib keltiradilar. Avvalo ilmning mohiyati ibodatga vosita bo`lishdir. U orqali inson Robbini taniydi va unga bandalik qilishga harakat qiladi. Modomiki inson Allohga ibodat qilish yo`liga o`tgan ekan, unga ilmning keragi yo`q deydilar.

Aslida tasavvuf namoyandalari hech qachon ilmgaga qarshi bo`lmaganlar, balki ilmsizlik bilan tariqat uyg`un bo`la olmasligini uqtirib kelganlar. Shu o`rinda biz tariqat mezonlarini teranroq anglash, asl mohiyatni tushunish maqsadida yana tarixga murojaat qilamiz: XVIII asrda Markaziy Osiyoda Naqshbandiyya-Mujaddidiyya tariqatining rivojlanishiga ulkan hissa qo`shgan alloma Xalifa Siddiqning bu boradagi qarashlari va amalga oshirgan islohotlarini misol qilib keltiramiz.

Xalifa Siddiqning sulukni boshqarishdagi o`ziga xos jihatlaridan biri shu ediki, muridlarni zikr o`rniga ko`proq Qur`on o`qishga chaqirardi, turli diniy bilimlarni, shariat ahkomlarini o`rganishga buyurardi.

Turkistonning shayx ul-mashoyixi Ahmad Yassaviy (XII asr) ham tariqat va shariatning o`zaro vobastaligini sodda turkona tilda ravshan bayon qilib bergen. Mana, u zoti sharif nima deydi:

*Har kim qilsa tariqatni da `vosini,
Avval qadam shariatga qo`ymoq kerak.
Shariatning ishlarini ado qilib,*

Andin so`ngra bu da`voni qilmoq kerak.

Yassaviy fikriga ko`ra, shariatsiz tariqat va tariqatsiz haqiqat yo`q. Tariqatga qadam qo`yan odam shariatga suyanmasa, «shayton kelib» imoniga chang soladi.

Pirga bay`at qilmoqchi bo`lganlar yoshi, jinsi, diniy bilim saviyasi, aqliy qobiliyatidan qat`i nazar, muridlikka qabul qilinadi. Shuningdek, muridlari orasida balog`atga etmagan yoshlar bor va ular talaygina. Bu esa «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi qonunning bir necha moddalariga ziddir. Jumladan, qonunning 3-moddasida «Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o`qitishga yo`l ko`yilmaydi», – deb belgilab qo`yilgan. 9-moddada: «Xususiy tartibda diniy ta`lim berish man etiladi» – deb belgilangan.

Shuningdek Samarqand viloyati hududida faoliyat yuritayotgan tariqatlardan biri xalq orasida «Qora sallalilar» ilmiy tilda – Naqshbandiyya-Mujaddidiyya deb ataladi. Mazkur tariqat etakchisi Isoqjon Umarov (Isoqjon domla) 1911 yil Samarqand viloyati Narpay tumani Oqtosh qishlog`ida tug`ilgan. (yangi slayd) «Qora sallalilar» tarafdarlari 1953 yildan buyon qora sala o`rashadi. Bugungi kunda tariqat tarafdarlari soni 5 ming kishidan ortiq va ular, asosan, Samarqand (Samarqand shahri, Narpay, Toyloq, Bulung`ur, Kattaqo`rg`on va Urgut tumanlari), Navoiy (Xatirchi, Qiziltepa tumanlari, Navoiy shahri), Qashqadaryo (Muborak, Koson, Qarshi tumanlari), Toshkent viloyati (Bo`ka tumani, Qo`yliq dahasi) va Xorazm viloyatlari hududida, Buxoro viloyatining G`ijduvon, Shofirkon, Vobkent tumanlari va Buxoro shahrinda istiqomat qilishadi.

Isoqjon domla o`zining tariqatga rahbarlik qilish faoliyatini 1983 yildan boshlagan. U tutgan yo`lning negizi Naqshbandiya tariqatiga bog`langan.

Isoqjon domla va uning tarafdarlari tomonidan an`anaviy hanafiy mazhabi ahkomlari va ahli sunna val-jamoa e`tiqodiga mos kelmaydigan hatti harakatlar kuzatilayotgani ular bilan boshqa namozxonlar o`rtasida ba`zi ziddiyatlarga sabab bo`lib qolmoqda. Misol tariqasida quyidagi holatlarni keltirish mumkin:

– o`zgalar (tarafdarlardan boshqalar)ning diniy yoki dunyoviy mazmundagi marosimlarida ishtirok etmaslik;

– qoplama (tilla, kumush) tish qo`yan kishining tahirati mukammal bo`lmaydi deyish;

– namozdan keyin ovoz chiqarib duo va tilovat qilishni makruh deb bilish;

Muhammad a.s. zamonasida bo`limgan har qanday ishni bid`at (yangilik) deb bilish va inkor etish.

Surxondaryo viloyatida Do`tmuhammad Tursunov o`zini Naqshbandiyya tariqatining piri murshidi deb biladi va muridlarni qabul qilib ularga tariqat

odoblari bo'yicha vazifalar beradi. Bu vazifalar asosan nafl ibodatlari, zikr xususida bo'ladi

Shariat ilmlaridan o'zining ma'lum darajadagi malakasiga qaramay D.Tursunov domlaning ham an'anaviy imomlar bilan bir necha masalalarda kelisha olmaydigan taraflari ham mavjud. Bular:

1. Ehtiyoti peshin namozini o'qishni qattiq himoya qiladi;
2. O'lgan kishiga davra qilish lozimligiga fatvo bergan;
3. O'zidan boshqa tariqatchilar – Ibrohim eshon, Is'hoq eshon kabilarni oshkora tanqid qilib, ularning adashganliklarini aytadi.

(yangi slayd) Jizzax viloyatida o'zini tariqatning yangi ko'rinishining asoschi deb biladigan Safar Qushakov tomonidan (1952 yili Baxmal tumanida tug'ilgan) "Nursafardiya" tariqati tarqala boshlaganini kuzatish mumkin. Bu tariqat vakillarining Toshkent va Jizzax shaharlarida bir necha «So'fiy tabobati» tibbiy markazlari mavjud. Bundan tashqari S.Qushakov «Sufiy jang san'ati» nomi bilan turkum risolalar chop ettirgan.

Kitoblarda, yuqorida aytilganidek, Sharq jang san'ati usullari haqida gapirilgan bo'lib, ularni musulmonlar nomi bilan bog'lashga harakat qilingan. Jumladan kitobda: «So'fiy jang san'ati asosi hozirgi Xitoy hududida Uyg'ur muxtor viloyati, Nindzya va Tansu viloyatlarida aholi o'rtasida saqlanib qolgan va u hozirgi Ushu, Sini, Shaolin mакtablariga katta ozuqa va tunganmas boy axborot olib kirgan» – deyiladi. Vaholanki islom dini XIV asrdan buyon dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarqalgan, bu din ta'limoti, amaliyoti va marosimlari haqida ming-ming tomli kitoblar yozilgan bo'lsa, ularning birortasida ham musulmonlarning jang qilish san'ati degan gap aytilmagan.

Ikkinchidan, islom tinchlik va osoyishtalik dini. Unda odamlarning o'zaro osoyishta hayot kechirishlari, o'z yurtlarini obod qilishlari tarannum etiladi. Shuning uchun islomda alohida urushish uslubi bo'lgani haqida gapirish o'rinsiz. Bundan tashqari so'fiylar musulmonlar orasidagi eng xoksor, dunyo boyliklariyu boshqa manfaatlardan yuz o'girib, faqat oxiratni o'ylaydiganlar hisoblanadilar. Bir necha bosqichdan iborat jang usulini aynan so'fiylarga bog'lash ham o'ta mantiqsizlikdir. Agar Xitoy hududlarida yashagan musulmonlar o'sha erlik aholiga xos tarzda Ushu, Kunfu, Karate kabi jang san'atlarini o'zlashtirgan bo'lsalar buni din bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi.

Masalaning boshqa tarafı ham bor. U ham bo'lsa islom ulamolari islom ma'rifiy jihatdan targ'ib qilib turgan bir paytda, qandaydir jang qilish usulini ham bu dinga olib kelib taqash yoshlарimizning ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. Yurtimizda o'nlab sharqona kurash turlari rivojlanib bormoqda. Vatanimiz farzandlari ular bo'yicha jahonning turli maydonlarida musobaqalarda qatnashmoqdalar, biroq ularning hech biri qaysidir din bilan bog'lanayotgani yo'q-

ku! Shunday ekan, mazkur oqim O'zbekistondagi dinlararo bag'rikenglik tamoyillariga ham mos kelmaydi.

Yana bir narsani to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu yo`nalish hech qachon islom dinidan xabardor bo`lgan muslimmonlar, ulamolar tomonidan qabul qilinmaydi.

Nursafardiya yo`nalishi tomonidan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi Qonunning diniy ta`lim olish xususida bandini qo`pol ravishda buzilmoqda. Qonunda aytildiki: «Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruв organlari ruhoniylar va o`zlariga zarur bo`lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o`quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o`quv yurtlari O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro`yxatdan o`tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko`rsatish huquqiga ega bo`ladi... Diniy o`quv yurtlarida diniy fanlarni o`qitayotgan shaxslar diniy ta`lim olgan bo`lishlari va o`z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruв organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim. Xususiy tartibda diniy ta`lim berish man etiladi». Nursafardiyaning markazlarida so`fiylikni o`rgatayotganlarning maxsus litsenziyasi va diniy ta`lim olganligi haqidagi ma`lumotnomasi yo`qligi aniq.

Xulosa

Ta`kidlash lozimki, O`zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaro mamlakatda amalda bo`lgan qonun va qonun osti hujjatlarini hurmat qilishi lozim. Jumladan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi Qonunni. Biroq hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud bo`lgan tariqatchilar tomonidan ba`zi qonunlarga rioya qilinmayotganini kuzatish mumkin. Jumladan mazkur qonun me`yorlariga zid ravishda o`ziga shogird (murid) tanlashda kishilarning yoshi, diniy bilimi va shariat qoidalarini qay darajada bilishini tekshirmsandan qabul qiladi. Shogirdlar yoshi chegaralanmagan.

Bugungi kunda mamlakat hududida faoliyat olib borayotgan tariqatchilar O`zbekistonning xavfsizligiga tahdid solmaydilar. Biroq bu masalaga doir bir necha muammolar mavjud. Jumladan:

1. Tarafdlarning ko`payishi, moddiy bazaning mustahkamlanishi, tariqatlar o`rtasidagi kelishmovchiliklarning chuqurlashuvi jiddiy ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin;

2. Tariqatchilar tomonidan shariat talablarining noto`g`ri talqin qilinishi, an`anaviy islom tamoyillariga karama-qarshi bo`lgan qoidalar ishlab chiqilishi tariqat tarafdoi bo`lmaganlar va diniy muassasalar xodimlari o`rtasida noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo`lmoqda;

3. Har qanday tariqatga rahbarlik qilish cheksiz moddiy tushumlar bilan bog`liq. Bu esa «taxt vorisi» kim bo`ladi degan masalada tariqatlari ichida nizolar kelib chiqishi mumkin. Bu borada Ibrohim eshon vafotidan so`ng uning

tarafdorlari orasida kelib chiqqan kelishmovchiliklar, o`zining pirligi isbotlash uchun boshqa da`vogarlarni kufrda ayblastash holatlarini misol tariqasida keltirishning o`zi etarlidir;

4. «Nursafardiyya» tariqati vakillari turli sharq yakka kurashi usullarini o`zlashtirib olganlaridan so`ng, o`zlarining haq ekanliklarini bilak kuchi bilan isbotlashga harakat qilib qolmasmikinlar degan haqli savol tug`iladi.

5. Yosh-yosh yigitlar salsa, chopon va mahsi-kalish kiyib, «dunyo ishlari bizga qiziq emas» deb, jamiyatdan ajralib qolishlari, oila, qarindosh urug`lar va boshqa yaqinlardan uzoqlashishlari ijtimoiy vaziyatga o`ta salbiy ta`sir ko`rsatishi turgan gap.

6. Tariqatning navbatdagi rahbari Tojikiston, Qozog`iston yoki Qirg`iziston kabi qo`shni davlatlardan bo`lishi ehtimoldan xoli emas. Buning oqibatida O`zbekiston fuqarolarining qo`shni davlat hududiga tez-tez borib kelishlarining ehtiyoji tug`iladi. Bu esa milliy xavfsizlik masalalariga daxl qilishi yoki g`arazli kuchlar qulay manba topilishiga olib keladi.

Bularning oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Birlamchi islom manbalari asosida tariqatchilarni shariatga va ijtimoiy qonunlarga zid bo`lgan amaliyotlarini fosh etish;
- joylardagi nufuzli imomlar bilan tariqatchilar o`rtasida muloqotlarni tashkil etish va mavjud ziddiyatlar, tushunmovchilikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko`rish;
- O`zbekiston musulmonlari idorasi vakillari bilan hamkorlikda viloyat, tuman hududida faoliyat olib boradigan tariqat rahnamolari va vakillari bilan ishslashni yo`lga qo`yish;
- Mahalla oqsoqollari, maslahatchilar va imomlar tomonidan tariqatga kirgan yoshlarni o`z oilalarini tashlab pirning xizmatiga ketib qolishlari, tarkidunyochilikka berilishlari, farzandlarini dunyoviy ta`limdan chetlatishlarini oldini olish bo`yicha muntazam ishlar olib borish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. Asarlar to`plami, T.3. – T.: O`zbekiston, 1996. – B. 7.

XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O`ZBEK MILLIY ZIYOLILARINING ALIFBO ISLOHOTLARIGA MUNOSABATI

Ahmadov X.S. – Mir Arab oliy madrasasi tadqiqotchisi